



**JIZZAX VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**JIZZAX
VILOYATIDA
QURILISH ISHLARI**

**2023- YIL
YANVAR-FEVRAL**



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2023- yilning yanvar-fevral oylarida, Jizzax viloyatida jami **288,3** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2022- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan **71,9 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.




2023- yil 1- mart holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, birlikda



Yillar kesimida soni



Hududlar kesimida



864

Bino va inshootlar qurilishi

325

Fuqarolik obyektlarini qurilishi

432

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2022- yil bilan solishtirganda o'sish sur'ati 78,5 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 53,3 foiz ulushi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 20,0 foiz ulushi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 26,7 foiz ulushni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga :		o'tgan yiliga nisbatan, % da
	01.03.2022- y.	01.03.2023- y.	
Jizzax viloyati	2064	1621	78,5
Jizzax sh.	880	643	73,1
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	54	56	103,7
Baxmal	66	69	104,5
G'allaorol	142	144	101,4
Sh. Rashidov	340	240	70,6
Do'stlik	66	51	77,3
Zomin	131	108	82,4
Zarbdor	113	80	70,8
Zafarobod	28	22	79,6
Mirzacho'l	54	43	78,6
Paxtakor	79	76	96,2
Forish	72	66	91,7
Yangiobod	39	23	59,0



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Jizzax sh. (39,7)



Sh.Rashidov (14,8)



G'allaorol (8,9)





Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-fevral uchun

	Qurilish ishlari, mln. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Jizzax viloyati	288257,4	10843,4	194681,3	82732,7
Jizzax sh.	113828,4	1456,1	98320,9	14051,4
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	6499,4		3268,7	3230,7
Baxmal	13528,9		5957,2	7571,7
G'allaorol	14783,9	200,0	6255,1	8328,8
Sh. Rashidov	50057,8		40328,0	9729,8
Do'stlik	7566,1		3608,5	3957,6
Zomin	25853,5	5865,2	11906,1	8082,2
Zarbdor	11974,3	3322,1	3464,3	5187,9
Zafarobod	3706,4		361,8	3344,6
Mirzacho'l	5720,2		1960,7	3759,5
Paxtakor	20446,0		15235,3	5210,7
Forish	10220,7		2982,6	7238,1
Yangiobod	4071,8		1032,1	3039,7

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




2023- yilning yanvar-fevral oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 10843,4 mln. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilga nisbatan 123,4 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi ko'rsatkich darajasidan 1,3 % punktga ko'payib, 3,8 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari 2023- yil yanvar- fevral uchun




Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta‘mirlash, kapital ta‘mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.





Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Zomin tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 2,0 %) ga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2023- yilning yanvar-fevral oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 67,5 % i to'g'ri kelib, 2022- yil ko'rsatkichiga nisbatan 9,5 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilga nisbatan 64,7 % ni tashkil etgan holda 194681,3 mln. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



67,5

2023- yil yanvar-fevral

77,0

2022- yil yanvar-fevral




MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Jizzax shahri (98320,9 mln. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 50,5 %), Sh.Rashidov tumani (40328,0 mln. so'm yoki 20,7 %), Paxtakor tumani (15235,3 mln. so'm yoki 7,8 %)ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor


Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **28,7 %** ni tashkil etdi yoki **82732,7** mln. so'm miqdorida qayd etildi. 2022- yilga nisbatan **93,2 %** ni tashkil etdi.




Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **1 670,0** mln. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **286587,4** mln. so'm qurilish ishlari bajarildi.


2022- yil yanvar-fevral



2023- yil yanvar-fevral




Davlat mulkchilik shakli bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 2023- yil yanvar-fevral oylarida





Nodavlat mulkchilik shakli bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 2023- yil yanvar-fevral oylarida



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi
2023- yil yanvar-fevral oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **82,1 %** i yoki **236 775,5** mln. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

4,5 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **10 709,6** mln. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **4,5 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **151 446,9** mln. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **64,0 %** ni tashkil etdi.

64,0%

31,5 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **74 619,0** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **31,5 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-fevral oylarida

	Qurilish ishlari, mln. so'm	O'sish sur'ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish
Jizzax viloyati	288257,4	71,9	236775,5
Jizzax sh.	113828,4	70,6	93499,2
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	6499,4	115,4	5338,6
Baxmal	13528,9	105,7	11112,7
G'allaorol	14783,9	60,0	12143,5
Sh. Rashidov	50057,8	75,5	41117,6
Do'stlik	7566,1	91,6	6214,8
Zomin	25853,5	63,4	21236,1
Zarbdor	11974,3	64,4	9835,7
Zafarobod	3706,4	58,3	3044,4
Mirzacho'l	5720,2	72,3	4698,6
Paxtakor	20446,0	73,2	16794,4
Forish	10220,7	72,8	8395,3
Yangiobod	4071,8	65,3	3344,6


**Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda*



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 0,1 % ni tashkil etib, 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 11,5 % punktga kamaydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,3 % punktga ko'paydi, 64,8 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 9,2 % punktga ko'paydi, 35,1 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 31,0 % ni tashkil etdi va 2022- yilga nisbatan 11,3 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 68,1 % (11,7 % punktga kamaydi) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,9 % ni tashkil etdi (0,4 % punktga ko'paydi).

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari




Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

2022- yil
yanvar-fevral




2023- yil
yanvar-fevral

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilga nisbatan 14,6 % punktga kamaydi va 0,0 % ni tashkil etdi. Qolgan 100,0 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilga nisbatan 14,6 % punktga ko'paydi.





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-fevral

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurilishi	Fuqarolik obyektlarini qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Jizzax viloyati	288257,4	234813,3	34366,1	19078,0
Jizzax sh.	113828,4	92724,1	13570,6	7533,7
tumanlar:				
Arnasoy	6499,4	5294,4	774,9	430,1
Baxmal	13528,9	11020,6	1612,9	895,4
G'allaorol	14783,9	12042,9	1762,5	978,5
Sh. Rashidov	50057,8	40776,9	5967,9	3313,0
Do'stlik	7566,1	6163,3	902,0	500,8
Zomin	25853,5	21060,2	3082,3	1711,0
Zarbdor	11974,3	9754,2	1427,6	792,5
Zafarobod	3706,4	3019,2	441,9	245,3
Mirzacho'l	5720,2	4659,7	682,0	378,5
Paxtakor	20446,0	16655,2	2437,6	1353,2
Forish	10220,7	8325,7	1218,5	676,5
Yangiobod	4071,8	3316,9	485,4	269,5

**Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda*



*Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi*

Aloqa telefoni: (72) 221-53-73